

**O’TKIR HOSHIMOV VA ABDULLA TALQINI.QAHHOR ASARLARIDA
“ONA” VA “AYOL” OBRAZLARI**

Jabaraliyeva Sevaraxon Nozimjonovna
Fergana State University 4th year student

jabaraliyevasevara@gmail.com

Usmonova Sevara Sultonovna

Fergana State University

English language and literature faculty, Applied English department,

Doctor of philosophy in philology, PhD, associate professor

mahkamovasevara078@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola taniqli o’zbek yozuvchilari O’tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” , “Dunyoning ishlari” hamda Abdulla Qahhorning "Ming bir jon", “Mayiz yemagan xotin” hikoyasi o’ziga xos mahorat bilan tasvirlangan. Ikkala mahoratli adib ham asarlarini chuqur tahlil qilib, undagi dolzarb mavzularni yangicha ko’rinishda baholashga, shuningdek yozuvchi tomonidan yaratilgan Ona obrazi va uning sharq ayoli siymosini, mushtarak fazilatlarini mohirona tasvirlangani aks ettirilgan.

Kalit so’zlar: “Ona”, “Ayol” konsepsiyalari, onalik tuyg’usi, hikoya, obraz, tushuncha, O’zbek adabiyoti, hikoya epik tur, nasr.

Abstrakt. This article describes the famous Uzbek writers O’tkir Hashimov's "Writings on the edge of the notebook", "Works of the World" and Abdulla Qahhor's story "A Thousand Lives", "A Woman Who Has Not Eaten Raisins" with a unique skill. analyzing and evaluating the current topics in it in a new way, as well as skillfully depicting the character of Mother and her image of an oriental woman, common qualities, created by the writer.

Key words: "Mother", "Woman" concepts, maternal feeling, story, image, concept, Uzbek literature, epic type of story, prose.

“Ona”, “Ayol” siymolari dunyoning barcha millatlari hayotida eng ulug’ va mo’tabar zotlar hisoblanib, xalqlarning adabiy hayotida asosiy g’oya va obraz shaklida gavdalanib kelinadi. Har bir millatda “Ona” obrazini, ayollik xususiyatlarini birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor bo’lsada, ayni paytada har bir xalqning ona siymosini boshqa xalqlardan undagi ichki va tashqi dunyosi, fe’l-atvori, tabiati va dunyoqarashi bilan ajralib turuvchi, farqli jihatlari ham ko’zga yaqqol tashlanadi. Ona butun bir millat, xalqning shakllanishida, uning rivojlanishi va yoki zavol tutishida ta’minlaydigan, butun bir millatning namoyon bo’lishida alohida o’rin tutuvchi shaxs, siymodir. Turli manbalarda “Ona” va “Ayol” konsepsiyalariga turlicha ta’rif berilib

kelingan. Jumladan bir manbaada Ona bolani tuqqan, ulg'aytirgan va yoki bola o'stirish uchun lozim tuxumdon ajratgan ayoldir. Onaning ijtimoiy, madaniy va diniy ta'riflari va rollari murakkabligi va farqlanishi tufayli bu atamaga universal ta'rif berish qiyin. Onaning erkak ekvivalenti otadir" deb ta'riflansa, boshqasida esa "Zulmat tunlar ichra qolganingda senga Nur taratuvchi, seni yorug' kunlar tomon olib chiquvchi zot! Mehr muhabbatini, dunyosini, kerak bo'lsa jonini beminnat beraoladigan yagona mehri daryo zot! Ochlikdan o'lim arafasiga kelib qolsa ham, eng so'nggi luqmasini nasibasini senga bera oladigan zot! Seni tavoningga zarra tikan kirsam, uni yuragiga nayzalar sanchilgandek azobni his qiluvchi zot! Seni dunyoga keltirish uchun qancha azoblar hattoki o'linga ham tik boqa olgan zot! Ona kim bilasizmi? Oyoqlari ostida jannatni bosib turuvchi buyuk zot!" deb talqin etiladi. "Odam qalbida qanday oliyanob tuyg'ular mavjud bo'lsa, bularning barchasi avvalo onadandir". Shu ma'noda o'zbek adabiyotida "ona" va "ayol" obrazlarining talqin etilishi bu nafaqat ushbu obrazlarning o'ziga xosliklarini o'rganish va tahlil qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balkim ushbu xarakterlar orqali o'zbek adabiyotidagi milliy fazilatlarni yozuvchi tomondan mohirona yaratilganini guvohi bo'lish, shuningdek ijtimoiy, tarbiyaviy mohiyatini badiiy asarda obraz sifatida talqin etilishini o'rganishdan iborat. O'zbek adabiyotida "Ona" va "ayol" siymolarining yaqqol, go'zal va betakror yarata olgan usta yozuvchilardan biri O'tkir Hoshimovdir. Adib asarlarini ushbu obrazlarsiz tassavvur qilish juda mushkul. "Ona" obrazi muallifning faqatgina o'tgan voqealarni tasvirlash bilan, va yoki o'z onasi timsolida dunyodagi ideal onani tasvirlash bilan chegaralanib qolmasdan, balkim o'z onasi siymosida sharq ayollarining obrazini to'liq tasvirlab bera olgan. Yozuvchining ko'plab asarlari yaratilganiga qirq yildan oshib, zamonning tartib-tamoyillari va insonlarning ong va qalbida evrilishlar, siyosat va mafkurada o'zgarishlar kuzatilganiga qaramasdan, insoniylik, insof singari yuksak xislatlarni saqlab qolishi, uni o'z farzandlarining tarbiyasida qo'llashi, farzandlariga mehr-muhabbati va samimiyati, aynan sharq ayolining fazilatlaridan biridir. Misol tarqasida, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan "Laylak" parchasida muallif ona siymosini mohirona tasvirleydiki, u orqali barcha sharq onalaridagi farzandiga bo'lgan mehr-muhabbati, butun hayoti va umrini unga bag'ishlaganini, hech erinmasdan farzandining barcha savollariga samimiyat va shirin suxanlik bilan javob qaytarishini kuzatishimiz mumkin. Lekin oradan ancha vaqt o'tib, ona keksayib qolib, bolalarcha qilgan injiqligini va qiziquvchanligini har bir farzand ham bolaligida ko'rgan, ona tomondan ko'rsatilgan mehr-muhabbatni qaytara olmasligini guvoh bo'lishimiz mumkin. "Qishloq guzarida yarmini yashin uchirib ketgan bahaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni ko'rib angrayib qoldi: chinorning tarvaqaylab o'sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko'rinar, uyada esa oyog'i, tumshug'i uzun bir qush turar edi. Bola mo'jiza ko'rgandek taqqa to'xtab qoldi.

- Anavi nima, oyi?- dedi o'sha tomondan ko'z uzmay.

-Laylak, o'g'lim, laylak!- ona o'g'lining boshini silab qo'ydi.

– Yura qol, jonim.

Bola hech qachon bunaqa qushni ko'rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to'xtab qoldi.

-Nima u, oyi? –dedi tag'in chinor uchiga ko'z tikib.

-Laylak, o'g'lim, laylak.

- Nimaga bir oyoqda turibdi?

Adibning “Dunyoning ishlari” asaridagi “Ikki afsona” hikoyasida yozuvchi onasining ertalab barvaqt turib, ko'chalarni supurib, ishlaganini eslab o'tadi. Vaqt o'tib akasiga onasining ishi yoqmasligi va bu ishni qilmasligini aytganida, onasi halol mehnatning aybi yo'qligini, peshana teri bilan hayot kechirish, halollikda gap ko'pligini aytib, farzandlariga halollikni o'rgatishi, mehnat qilib inson ulug'lanishi haqidagi so'zlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu holat alohida e'tiborga sazovor jihati shundaki, onaning halol mehnati bilan farzandlarini voyaga yetkazishi, ularning oyoqqa turishida va o'zining halovati, tinch va osuda hayot kechirishlarida o'zining oddiygina bo'lsada mehnati va u bilan faxrlanishi shuningdek, insoniylik, insof degan tuyg'ularidan dalolat beradi.

Abdulla Qahhor hikoyalarning yana bir fazilatlarini ta'kidlab o'tish kerakki, yozuvchi hikoyalarda shaxs taqdiri, muhit sharoit bilan, xalq hayoti bilan mustahkam bog'liq holda beriladi. Shaxs taqdirining shakllanishi va yo'nalishini belgilashda bu omillar ham hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Mana shunday shaxs taqdirining shakllanishi va yo'nalishini asoslab beradigan obrzalardan biri bu “Ming bir jon” hikoyasidagi Mastura obrazi matonatli ayol sha'niga madhiyalar bitadi. Hikoya qahramoni Mastura Aliyeva o'n yildan beri og'ir dard chekadi. “Bechora turmush qurganiga bir yil bo'lar –bo'lmas shu dardga yo'liqqan ekan. Tomog'idan hech narsa o'tmaydi, ovqatni qorniga quyishadi..... Teshib qo'yilgan Ba'zan o'zi quyadi, ba'zan eri....” “Bechoraning tomog'idan hech narsa o'tmasligi ustiga qorniga tez-tez suv to'planar ekan “. Uning ko'rinishi murdani eslatadi. Hikoyachi deydi : “Masturani barilla ko'rdik.... Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap-sariq teri-yu, suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi... Tobutda yotgan o'likning qo'limi, oyog'imi, biron sabab orqasida bexosdan qimirlab ketsa kishi qay ahvolga tushadi? Uning o'lim pardasi qoplagan yuzida chaqnab turgan ko'zlarini ko'rgan kishi xuddi shu ahvolga tushar edi”. Ba'zi birovlar uni saab bo'lgan, uch kunligi bormi, yo'qmi deyishadi....“Hikoyada Mastura ana shunday og'ir vaziyatga tushib qolgan obraz sifatida gavgaldanadi. Uning bu darddan qutulib ketishiga sira ham aql bovar qilmaydi . Kitobxon uning o'zi ham hayotdan qo'l siltab qo'ya qolgan bo'lsa kerak deb o'ylaydi.Lekin ahvol boshqacha bo'lib chiqadi. Shu og'ir vaziyat tasviridan keyin yozuvchi kitobxonni bu ayolning ajoyib tabiati bilan batafsilroq tanishtirishga o'tadi. Bora-bora uning shu og'ir vaziyatga tamoman zid

bo'lgan ko'tarinki kayfiyati, ma'naviy dunyosi ma'lum bo'la boshlaydi. Mastura palatada ytoganida boshqa xonadagi kasallar ham undan ko'ngil so'rash uchun oldiga kirishadi. Shu payt hijolatli ish yuz beradi. Uning hol-ahvolini so'rab kirganlar Masturani ko'rishi bilanoq sarosimaga tushib qoladi, ular orasidagi Hoji aka degan kishi tamoman o'zini yo'qotib qo'yadi. Mastura esa bu voqeani hech ham o'ziga olmadi. "Mastura piqirlab kulib yubordi: yana kuldi, yosh boladay o'zini, tutolmay qiqirlar edi. Bu hazil va ayniqsa kulgi avval xunuk, odamning etini jimirlatagidan darajada xunuk eshitildi, kyin, nechukdir Masturaning yuzidan o'lim pardasi ko'tarilganday, hayot to'la ko'zlari o'lik yuziga jon kirgizganday bo'ldi"... "Bunaqa narsa menga ta'sir qilmaydi",-deydi u. Hikoyada Masturaning qalbi, irodasi kuchli tasvirlangan. Uning hayotga bo'lgan muhabbati g'oyat zo'r. Shu muhabbat unga matonatli iroda tug'dirgan. Kitobxon ayolning boyagi so'zlarini eshitgandan va uning ajoyib qalbi bilan yaqindan tanishgandan keyin, undan jirkanmay qo'ya qoladi, unga mehr va hurmat bilan qaray boshlaydi. Hikoyada obrazlardan biri "Bu xotinning Joni bitta emas, ming bitta ! Hozir tugab qolgan shamolday lipillab yonayotgan joni basharti so'ngan taqdirda ham qolgan mingtasini yoqib keyin so'nadi degan xulosaga kitobxon ham qo'shiladi.

Xulosa qilib aytganda, ikki yozuvchi ham o'z asar va hikoyalarida ayol va ona timsollarini chiroyli ko'rinishda tasvirlab bergan. Abdulla Qahhor "Nurli cho'qqilar" hikoyasida Zuhrani kitobxonga yanada yaqinroq tanishtirara ekan, kitobxonda bu ayolga nisbatan ayanch va qahr hissi yanada kuchayaveradi. Bu ayolning ustidan zaharhandali kulgi tus olaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gandi, I. (2018). Indira Gandi hayoti va siyosiy faoliyati. Hindiston Milliy kongresi oldidagi nutqi. – Moskva
2. Ahmad, S. Dunyoning ishlari qissasi haqida [elektron kitob]//<http://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/otkirhoshimov/dunyoning-ishlari-qissa/#gsc.tab=0>
3. Vagner, V. (2005). Qiyosiy psixologiya biologik asoslari. – Aql va idrok.
4. Aryes, F. (2019). Go'dak va eski tartib davridagi oilaviy hayot. Hayot bosqichlari bo'limi. – Nyu York: Fency.
5. Umumiy siyosatshunoslik lug'ati. (2018). – Moskva
6. Botirovich, E. O. (2022). THE IMPORTANCE OF TEACHING STUDENTS TO WRITING SKILLS.
7. Farkhodovna, M. M. (2021). Communication between Cultures and Language Structure. TALIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 341-345.
8. Абсаломов, Х., Эсанов, С., & Хакимов, Х. (2022). The importance of error correction in foreign language learning. Общество и инновации, 3(2/S).

9. Azimovich, R. Z. Chronotope Image in the Novel" Ulugbek Treasure" by Odil Yakubov. International Journal on Integrated Education, 3(11), 183-186.
10. Rahimov, Z., & Gulomov, D. (2020, December). RETROSPECTIVE STRUCTURE IN FICTION. In Конференции.
11. Mukhammadjonova Guzalkhan. The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume : 10, Issue : 11, November. - India, 2020.
12. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In Конференции.
13. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – С.

